

**Kosmik tadqiqotlar va texnologiyalar agentligida
2024-yil birinchi yarim yil yakunlari bo'yicha jismoniy va yuridik
shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish natijalari to'g'risida**

M A' L U M O T

2024-yilning birinchi yarim yilligida Kosmik tadqiqotlar va texnologiyalar agentligi (keyingi o'rnlarda – "O'zbekkosmos" agentligi) tizimida murojaatlar bilan ishslash O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonuni hamda Vazirlar Mahkamasining "Davlat organlarida, davlat muassasalarida va davlat ishtirokidagi tashkilotlarda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishslash tartibi to'g'risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida" 2018-yil 7-maydagi 341-son qarori talablari asosida tashkil etildi va olib borildi.

Tizimida murojaatlar bilan ishslash masalasi birinchi yarim yillikning har oy yakunida "O'zbekkosmos" agentligining xizmat majlislarida va har haftada Agentlik direktori huzurida o'tkazilgan yig'ilishlarda tanqidiy muhokama qilinib, murojaatchilar tomonidan ko'tarilgan masalalarni amaldagi qonunchilikka muvofiq hal qilish hamda xodimlarning kasbiy malakalari va shaxsiy mas'uliyatini oshirish bo'yicha tegishli ko'rsatmalar berib borildi.

Hisobot davrida "O'zbekkosmos" agentligiga **jami 10 ta** (*yanvar - 1 ta, fevral - 2 ta, mart - 1 ta, aprel - 2 ta, may - 2 ta, iyun - 2 ta*) murojaat kelib tushgan.

Murojaatlarning **8 tasi** (80 foiz) jismoniy hamda **2 tasi** (20 foiz) yuridik shaxslar tomonidan yo'llangan.

Jismoniy shaxslar tomonidan yo'llangan barcha **8 ta** murojaat O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi (O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga Ishonch telefoni orqali kelib tushgan murojaat) orqali kelib tushgan.

Yuridik shaxslar tomonidan murojaatlar "O'zbekkosmos" agentligining info@uzspace.uz elektron pochtasiga yo'llangan.

"O'zbekkosmos" agentligiga kelib tushgan murojaatlarning:

4 tasi (40 foiz) shaxsiy uy-joy uchun kadastr hujjatlarini rasmiylashtirishda amaliy yordam ko'rsatish masalasi (*jismoniy shaxslar murojaati*);

3 tasi (30 foiz) kosmik soha yo'nalishiga oid takliflar (*jismoniy shaxslar murojaati*);

1 tasi (10 foiz) qishloq xo'jaligi sohasida kosmik monitoring bo'yicha tahliliy ma'lumotlarni taqdim etish (*yuridik shaxs murojaati*);

1 tasi (10 foiz) MChJga tegishli bino-inshootlar qurilishi (yillar kesimida) bo'yicha kosmik suratlarni taqdim etish (*yuridik shaxs murojaati*);

1 tasi (10 foiz) murojaat muqaddam berilgan taklifni ko'rmasdan qoldirish va ortga qaytarish (*jismoniy shaxs murojaati*) masalasida yo'llangan bo'lib, natijalari to'g'risida murojaatchilarga o'z vaqtida ma'lum qilinishi ustidan monitoring o'rnatildi.

Murojaatlarning **4 tasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi** (*barchasi jismoniy shaxs*), **2 tasi Farg‘ona viloyati** (*jismoniy shaxs*), **2 tasi Toshkent shahri** (*barchasi jismoniy shaxs*), **1 tasi Toshkent viloyati** (*yuridik shaxs*) va **1 tasi Buxoro viloyatidan** (*yuridik shaxs*) yo‘llangan.

Yo‘llangan murojaatlarning **3 tasida** (30 %) ko‘tarilgan talablar qanoatlantirilgan bo‘lsa, **7 ta** (70 %) murojaat bo‘yicha huquqiy ma’lumot, tushuntirish va tavsiyalar taqdim etilgan. Murojaatni rad etish, murojaatda ko‘tarilgan masalalarni ko‘rmay qoldirish yoki boshqa davlat tashkilotlarga yo‘llash holati kuzatilmadi.